



## EVOLUTIONARY PROCESSES ASSOCIATED WITH THE EMERGENCE OF FOOTBALL IN SOCIETY

**Akmaljon Turaqulov**

*Doctor of philosophy (PhD) in Philosophical sciences*

*Namangan State University*

*Uzbekistan, Namangan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Man, physical education, sport, defense, Ariggo Sacchi, Archaeology, Ancient Greece, Rugby, 9th century, Edward, Bellos, Neil Sullivan, Maurice Pefferkor, International Olympic Committee, FIFA, China, Rome, World Championship, 1930.

**Received:** 28.10.24

**Accepted:** 30.10.24

**Published:** 01.11.24

**Abstract:** This article is about the emergence of physical education in society, its initial tasks, the emergence of sports along with physical education, the fact that sports initially served for military purposes, and the formation of martial arts in its composition. His path before the birth of football. Information related to the obstacles of this sport in different countries. Controversial situations related to the emergence of football. Information is provided about the development of football rules in England and the effective participation of scientists in this process.

## JAMIYATDA FUTBOLNING VUJUDGA KELISHI BILAN BOG‘LIQ EVOLYUTSION JARAYONLAR

**Akmaljon Turaqulov**

*Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Namangan davlat universiteti*

*O‘zbekiston, Namangan*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** Inson, jismoniy tarbiya, sport, mudofaa, Ariggo Sakki, Arxeologiya, Qadimgi Yunoniston, Regbi, IX asr, Eduard, Bellos, Nil Sallivan, Moris Pefferkor, Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi, FIFA, Xitoy, Rim, Jahon chempionati, 1930-yil.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola jamiyatda jismoniy tarbiyaning paydo bo‘lishi, uning dastlabki vazifalari, keyinchalik jismoniy tarbiya bilan qatorda sportning vujudga kelishi, sport dastlab harbiy maqsadlar uchun xizmat qilgani uning tarkibida asosan yakkakurash turlarining shakllanishi. Futbolning paydo bo‘lishigacha bo‘lgan davrda uning bosib o‘tgan yo‘li. Turli mamlakatlarda mazkur sport turining to‘siqlarga uchrashi bilan bog‘liq ma‘lumotlar.

Futbolni paydo bo'lishi bilan bog'liq o'zaro tortishuvli vaziyatlar. Angliyada futbol qoidalarining ishlab chiqilishi va mazkur jarayonda ilm ahlining samarali ishtiroki haqida ma'lumotlar berilgan.

## ЭВОЛЮЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ, СВЯЗАННЫЕ С ВОЗНИКНОВЕНИЕМ ФУТБОЛА В ОБЩЕСТВЕ

*Акмалжон Туракулов*

*Доктор философии (PhD) по философским наукам*

*Наманганский государственный университет*

*Узбекистан, Наманган*

### О СТАТЬЕ

<p><b>Ключевые слова:</b> Человек, физическое воспитание, спорт, защита, Аригто Сакки, Археология, Древняя Греция, Регби, 9 век, Эдвард, Беллос, Нил Салливан, Морис Пефферкор, Международный олимпийский комитет, ФИФА, Китай, Рим, Чемпионат мира, 1930 год.</p>	<p><b>Аннотация:</b> В данной статье речь идет о зарождении физического воспитания в обществе, его первоначальных задачах, возникновении спорта наряду с физическим воспитанием, о том, что спорт изначально служил военным целям, а также о формировании в его составе боевых искусств. Его путь до зарождения футбола. Информация, касающаяся препятствий этого вида спорта в разных странах. Спорные ситуации, связанные с возникновением футбола. Приведена информация о развитии футбольных правил в Англии и эффективном участии ученых в этом процессе.</p>
--	--

### KIRISH

Insonni jismoniy jihatdan kamol toptirish jamiyat tarixining eng dastlabki davrlariga borib taqaladi. Mazkur sohaning paydo bo'lgan davri haqida aniq bir ma'lumot bo'lmaganligi uning muammoli va bahsli jihati hisoblanadi. Jismoniy tarbiyaning ibtidoiy jamoa tuzumi davrida vujudga kelgani mantiqiy nuqtai nazardan deyarli aniq bo'lsada, paydo bo'lishi va uning taraqqiyoti masalalari haligacha mukammal tadqiq qilinmagan.

Insoniyatning yashash uchun kurashida ovchilik ilk mashg'ulotlardan bo'lganligi va ov jarayoning serharakatlik hamda aniqlikka asoslanishidan kelib chiqib jismoniy tarbiya rivojida ovchilik va mehnat jarayoni keng o'rinni egallaganligini e'tirof etish mumkin. Jismoniy tarbiya bu – harakat demakdir, harakat esa inson salomatligi va jismoniy jihatdan barkamol bo'lishida muhim vosita hisoblanadi.

### ASOSIY QISM

Jismoniy tarbiyaning keyingi taraqqiyoti insonlarning o'z hududlarini begonalardan asrash va himoya qilishga qaratilganligi bilan bog'liq. Ilk davlatlarning paydo bo'lishi, ularni tinch va xavfsiz faoliyat yuritishi hamda ijtimoiy hayotida qo'shinlarning roli oshib bordi. Jismoniy

tayyorgarlik harbiy sohaning o'zagiga aylandi. Harbiy soha vakillarining jamiyatdagi nufuzi yuqori bo'lishining asosiy sababi, qadimgi davlatlarning eng birinchi vazifasi mudofaa qobiliyatini shakllantirish va tashqi dushmanga qarshi himoya immunitetini yaratishda edi. Bunday vaziyatda jismoniy tarbiya jamiyat uchun eng kerakli sohaga aylandi. Aynan jismoniy tarbiyaning harbiy sohaga kirib, uning takomillashuvi va negizida bir qator sport turlarining shakllanishiga turtki bo'ldi. Jismoniy tarbiya negizida kurash, nayza uloqtirish, qilichbozlik, engil atletika kabi sport turlari shakllandi.

Asrlar davomida qurol-aslahalarning yangi turlarini paydo bo'lishi va takomillashib borishi natijasida harbiy soha uchun mazkur vositalar birlamchi vazifani bajara boshladi. Sport harbiy sohani butunlay tark etmagan bo'lsa-da, avvalgidek birlamchi o'rinda emasdi. Aynan shu davrlardan boshlab sport jamiyatda alohida va yangi soha sifatida namoyon bo'la boshladi. Natijada, aholining qaysidir qatlami emas, balki barcha sport bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

O'z navbatida, jamiyat uchun yangi soha bo'lgan sportda dastavval yakkakurash yo'nalishidagi sport turlari rivojlandi. Bu jihat tabiiy ravishda har bir insonda o'zini himoya qilish tushunchasi mavjud bo'lganligini ko'rish mumkin. Dastlabki Olimpiya o'yinlari buning yorqin misolidir. Asrlar osha musobaqalar soni ko'payib, jamiyatda jamoaviy sport turlarining yangi shakllari paydo bo'la boshladi. "Jamoaviy sport turlariga asoslangan sport jamoalariga, birlashish uchun yordam beruvchi ijtimoiy amaliyot sifatida qaraladi. Umumiy maqsadga erishish uchun jamoaviy sport turlari eng yaxshi ko'nikma vazifasini bajardi".[1. – B. 4] Jamoaviy sport turlarining rivojlanishida jadallik kuzatilmaganligi, turli hududlarda va turfa sharoitlarda namoyon bo'ldi.

Biror-bir sport turi yo'qki, jamiyatdan ayro tarzda rivojlanadigan. Qaysidir davrda sport salomatlik uchungina xizmat qilgan bo'lsa, ma'lum davrlardan boshlab insonlarga quvonch ulashuvchi, bo'sh vaqtni to'g'ri tasqimlovchi hamda kishilar hayotini mazmunli o'tkazishdagi asosiy vositalardan biriga aylandi. XIX asrga kelib, jamiyatning ma'lum qatlamlari uchun sport kasbga aylanganini kuzatish mumkin. Jamiyat rivojlanishi va sport turlarining insoniyat tomonidan tez suratlarda o'zlashtirilganligini futbol misolida yaqqol ko'rish mumkin.

"Futbol" inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "foot" – "oyoq", "ball" – "to'p" degan ma'nolarni anglatadi". [2. – B. 2] Futbol yagona maqsad asosida birlashgan 11 kishilik jamoaviy o'yindir. Futbol bu- turli xarakterdagi o'nbir shaxsni jamoa sifatida shakllantirib, bir maqsad sari yo'naltiradigan, jismoniy harakatkar va individual intellektga asoslangan sport turi. Ushbu o'yinning bosh maqsadi, to'pni raqib darvozasiga faqat oyoq yoki tananing boshqa qismlari bilan (qo'llar bundan mustasno) raqib jamoaga qaraganda imkon qadar ko'p marta urishdir. Mashhur futbol murabbiyi Arrigo Sakki ta'biri bilan ifodalaganda: "Futbol – muhim bo'lmagan narsalar

ichidagi eng muhim ish”. [3. – B. 20] Haqiqatdan ham Arrigo Sakkining fikri bir qarashda shunchaki sport turi yoki o‘yin bo‘lishi mumkin, lekin, maydonda to‘p tepayotgan futbolchi va uni bevosita tomosha qilayotgan muxlislar uchun eng muhim va asosiy masalaga aylanadi. Insonning tabiiy instinkti shunday u biror moddiy narsani doim ushlab, ko‘rish va tepishga bo‘lgan qiziqish xususiyati shakllangan. “Futbolda esa siz to‘pni tepish orqali jamoadoshlaringiz bilan aloqa o‘rnatasiz. O‘yin davomida insondagi juda ko‘p organizmlar to‘pni his etadi va zarba berish orqali kayfiyat bag‘ishlaydi”. [4. – B. 710]

Futbol qoidalarining soddaligi, jismoniy harakatlarga boyligi, mavjud sharoitdan kelib chiqib, o‘ynash imkoniyati mavjudligi mazkur sport turining dunyo miqyosida keng ommalashishiga zamin yaratdi va tom ma’noda, Yer sharining deyarli barcha mamlakatlari uchun xalq o‘yiniga aylandi. Shotland futboli afsonasi Nil Sallivan ta’kidlaganidek: “Futbolda ko‘p narsani tushunmasliging mumkin, lekin jarayonni ko‘rib hayajonlanaverasan”. [5. – B. 20] Nil Sallivanning fikrini qo‘llab-quvvatlagan holda shuni qayd etish mumkinki, futbol shaxs va jamiyatda kutilmagan holatlarni vujudga keltiradi hamda shakllantirib boradi va o‘z jozibasi bilan insonlarni o‘zaro birlashtiradi.

Futbol tarixiga nazar tashlansa, bir-birini to‘ldiruvchi yoki inkor etuvchi ko‘plab ma’lumotlarni ko‘rish mumkin. “Arxeologik qazilmalarning dalolat berishicha, qandaydir futbolchi “ajdodlarimizdan” biri qadimgi Misrda yashagan ekan. Bu yerdan olimlar nafaqat to‘p o‘ynovchining tasviri, balki to‘pning statuetkasini ham topdilar. Tarixchilarning isbotlashiga ko‘ra, Qadimgi Yunonistonda to‘pni o‘ynashni bilgan kishi katta shuhrat qozonardi, chunki ushbu o‘yin gimnastikaning jismoniy mashqlari doirasiga kiritilgan edi”. [6. – B. 3-4]

Qadimdan dunyoning ko‘plab davlatlarida futbol elementlarini eslatuvchi o‘ziga xos jismoniy harakatlar mavjud bo‘lgan. Afsuski, ular harakatlari orqali garchi futbolni eslatsa-da, mazkur harakatlarni to‘laqonli futbol tarixiga poydevor deb atash birmuncha qiyin. Buning sababi, yuqorida keltirilgan ma’lumotlar futbolning ilk ko‘rinishlari bo‘lib xizmat qiladi, xolos.

Mashhur fransuz futbolchisi Moris Pefferkorning ta’kidlashicha, “La-sul” o‘yinini to‘g‘ridan-to‘g‘ri hozirgi zamon futbolining ajdodi deb qo‘rqmasdan aytish mumkin bo‘ladi. Chunki, ushbu o‘yinda ikkita jamoa havo bilan to‘ldirilgan charm to‘pni tepishardi. Ushbu o‘yin o‘rta asrlardayoq Fransiyada ommabop bo‘lgan”. [7. – B. 4] Jamiyatning turli jabhalarini o‘z ichiga olgan futbol qadim davrlardan beri shaxsning jamiyatga, jamoaga esa shaxsning birikishini ta’minlovchi vazifasini bajarib kelgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, futbolning vujudga kelish tarixi mil. avv. 2500 yilga borib taqaladi. Chunki, ushbu davrda yunonlar, misrliklar va xitoyliklar to‘p hamda oyoq bilan bog‘liq o‘yinlarda ishtirok etganliklari qo‘lyozma manbalarda aks etgan. Ushbu o‘yinlarning ko‘pchiligi qo‘l, oyoq va hatto to‘pni nazorat qilish uchun tayoqlarni o‘z ichiga olgan. “Harpastumdagi Rim

o'yinlari imkon qadar uzoqroq vaqt davomida to'pni saqlab qolishga harakat qiladigan va uni tepishga asoslangan o'yin bo'lgan. Qadimgi yunonlar "episkiros" deb nomlangan shu kabi o'yinda ishtirok etgan". [8. – B. 3]

Mazkur yurt vakillari yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, futbolning yaratilishiga o'zlarini aloqador bilsalarda, mazkur sport turining asosan, oyoq va bosh bilan qo'l ishtirokisiz, hech qanday vositalarsiz o'ynalishi hisobga olinsa, ushbu harakatlar futboldan ham ko'ra ko'proq regbi sport turini eslatishini qayd etish joiz. "Regbi o'yinidan kelib chiqqan holda, futbol uzoq va qiziqarli tarixga ega". [9. – B. 15] Shu bilan birga, futbolni eslatuvchi yana bir o'yin mil. avv. XIV asrda Meksikada paydo bo'lib, u mahalliy aholi tomonidan "pok-ta-pok" nomi bilan yuritilgan. Keyinchalik ispanlar tomonidan taqiqlangan ushbu o'yin turi kauchukdan qilingan og'ir to'pda o'ynalganligi uchun ham o'yin davomida shikastlanishlar ko'p uchragan, ba'zan uchrashuvlar esa og'ir jarohatlar bilan yakunlangan.

Britaniyada oyoq to'pi o'yini mazkur orol hududlarida IX asrdayoq paydo bo'lgan, degan da'volar mavjud. Manbalarga ko'ra, ingliz qiroli Eduard II 1313 yilda shahar ichkarisida futbol o'ynashni taqiqlagan edi. Mazkur qirolning ushbu farmoyishi ingliz futbol ittifoqining arxivida saqlanib qolgan bo'lib, unda to'pni quvish jarayonida vujudga keladigan ur-yiqit shaharlarda katta to'polon chiqarayotganligi va aholi tinchligi hamda salomatligiga yomon ta'sir ko'rsatayotganligi bunga sabab sifatida ko'rsatilib, endilikda ushbu taqiqqa itoat etmaganlar qamoq jazosiga hukm qilingan. Aslida, bunday taqiqlarning asosiy sababi, o'yin paytidagi tartibsizliklar emas, balki shaharliklarning kamon orqali o'q otishdan ko'ra, harbiy o'yinlarda ishtirok etish ikkinchi darajaga tushib borayotganligi hamda hunarmandchilik va savdo-sotiq kabi muhim ishlardan chalg'itishida ham edi. Tadqiqotchi A. Bellosning fikricha: "Futbol o'zining o'rta asrlardagi ildizlaridan bugungi professional sport turiga qadar katta yo'lni bosib o'tdi". [10. – B. 107]

Futbol sport turining rivojlanishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Aynan mazkur davrda Kembrij universitetida dastlabki (1863 yil) futbol tashkiloti tuzildi. Ushbu tashkilot to'pni faqat oyoqda o'ynalishini qat'iy belgilab qo'ydi. Buning boisi, o'sha davrga qadar Angliyaning boshqa shaharlarida to'p qo'l va oyoq yordamida o'ynalar edi.

Shuningdek, XIX asrning 90-yillaridan boshlab futbol xotin-qizlarning tomoshabin sifatidagi ishtiroklari ham boshlangan. "Ko'rishimiz mumkinki, XIX asrning oxiri – XX asrning boshlaridan futbol jamiyatdagi barcha aholi qatlamlari orasida sevimli sport turiga aylana boshladi. Futbol aynan ushbu jihati bilan ham qolgan sport turlaridan ommalashuv nuqtai-nazaridan yetakchilikni qo'lga oladi". [11. – B. 7]

Futbol XIX asrning 80 – 90-yillariga kelib, Yevropa qit'asining kontinental iqlimli mamlakatlariga ham tarqaldi. Birinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda futbol qit'ada etakchi sport turiga aylanib ulgurgan edi. Afrika futboli ham aynan yevropacha andozalar va qoidalar

asosida shakllandi. O‘z o‘rnida, mazkur qit‘ada futbolning rivojlanishida yevropalik mustamlakachilarning rolini alohida ta’kidlash joiz. “Afrika futboli poydevori jismoniy kuchga urg‘u berilishi bilan boshqalardan farqlanadi. Tabiat Afrika xalqlariga yil davomida futbol o‘ynash imkoniyatini taqdim etdi”. [12. – B. 48] Shunisi ham xarakterliki, Afrika futboli evropaliklar uslubida shakllangan bo‘lsa-da, yakkakurashlarga asoslanganligi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi.

Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi (XOQ) 1900 yilda futbolni olimpiya o‘yinlari tarkibiga kiritishi ham ushbu sport turining ommalashuvida muhim omil bo‘ldi. Futbolning 1908 yilgi Olimpiada dasturidan o‘rin olishi uning rivojida yangi davr boshlanganligidan darak beradi. Keyinchalik esa 1904 yil 21 mayda Parijda Xalqaro futbol federatsiyalari Assotsiatsiyasi (FIFA) tashkil topdi.

“1930 yilda futbol tarixidagi ilk mundial o‘tkazilgan. Urugvay chempionat boshlanguniga qadar dunyoning eng kuchli terma jamoalaridan biri bo‘lib, 1924 va 1928 yillarda o‘tkazilgan olimpiada o‘yinlari g‘olibi edi. Jahon chempionatining barcha uchrashuvlari faqatgina bitta shahar – Montevideoda o‘tkazilgan. Ushbu turnirda Janubiy Amerikadan 7 ta, Yevropadan 4 ta, Shimoliy Amerikadan esa 2 ta davlat vakillari ishtirok etgan. Jahon chempionati sovrini haykaltarosh Abel Laflyorning eskizlari asosida tayyorlangan “Oltin ma’buda” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Mazkur kubok oltin suvi yurgizilgan kumushdan iborat bo‘lib, unda g‘alaba ma’budasi Nike tasvirlangan”. [13. – B. 100]

XX asrning 60-yillarida ingliz jamiyatshunoslari futbolning kelajagi borasida quyidagicha fikr bildirishgan: “Ushbu sport turi boshqa sport turlaridan sezilarli farq qiladi. Bu fikrlarni jahon chempionati musobaqalari tashkil etilganiga yarim asr ham bo‘lmay ishonch bilan ilgari surmoqdamiz. Asr oxiriga borib futbol jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, yuqori ehtimol bilan siyosiy jarayonlarida ham katta o‘rin egallaydi. Agar bugungi fikrlarimiz o‘zini oqlamasa, demak asr davomida birinchi va ikkinchi jahon urushidanda yirikroq urush sodir bo‘lgan bo‘ladi. Siz Tim Hillga ishonib, jamiyatda futbol taraqqiyotini jahon urushlarigina sekinlashtira oladi. Dunyo aholisi jahon urushlaridan charchagan endi bizga jahon chempionatlari kerak”. [14– B. 77] Kuzatishlarimiz natijasida guvoh bo‘lmoqdamizki, futbol chin ma’noda tinchlikparvar va tinchliksevar sport turi. Shuning uchun ham tinchlikni targ‘ib qiluvchi shiorlar dastlab futbol musobaqalarida va stadionlarda paydo bo‘lgan.

XX asrning dastlabki yillaridan Turkiston diyorida milliy futbol sport turi shakllana boshlaganini ko‘rish mumkin. Ma’lumki, O‘zbekistonda dastlabki futbol jamoasi Qo‘qonda tashkil topgan bo‘lib, mazkur jamoa a’zolari asosan mahalliy yigitlardan iborat edi. Ushbu jamoa “Muskomanda”, ya’ni musulmonlar jamoasi deb atalib, Farg‘ona shahrida 1912 yilda “Skobelev futbolchilari to‘garagi” nomi bilan o‘z faoliyatini boshlagan edi. Keyinchalik Toshkentda talabalardan iborat futbol jamoasi tashkil etilgan bo‘lsa, 1920 yilga kelib Namanganda ham futbol jamoasi tuzildi. Garchi, mamlakatning bir qator shaharlarda futbol jamoalari tashkil etilgan bo‘lsa-



da, rus hukmron doiralari tomonidan futbolga nisbatan shubha bilan qarash holatlari uchrab turardi. Bunda ular aholi orasida ommalashayotgan sport turida Britaniya siyosatining yashirin manfaatlari borligi, futbol asosan, aldashga asoslangan sport turi ekanligi uchun yoshlarni ongini buzishi mumkinligi shubha ostiga olingan. Dastlabki jamoalarning a'zolari uchun futbol ikkilamchi bo'lib, o'z kasb-hunarlaridan tashqari paytda shug'ullangan. Toshkentdagi ilk futbol jamoasi ham "Sport ishqibozlari jamiyati" to'garagi a'zolari vakillari hisoblangan.

### XULOSA

"Toshkentda 1924 yilda Markaziy Osiyodagi dastlabki chimli maydon qurildi. Shu yili Butunturkiston olimpiadasi o'tkazilib, unda turli viloyatlar jamoalari qatnashdilar. O'sha yillarda turli hududlarda korxonalar va tashkilotlar futbol jamoalari soni ko'payishi munosabati bilan 1925 yildan shahar birinchiliklari o'tkazila boshlandi. Bunda shahar birinchiligi juda tartibli tarzda tashkil etilganligi bilan alohida ajralib turadi".[15. – Б. 225]

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 30-yillarida O'zbekiston milliy terma jamoasining Y. Valishoev, M. Xo'jaev, H. Muhitdinov, Q. Badaliy, J. Saidov kabi bir qator sportchilari futbol muxlislarining sevimli o'yinchilariga aylandi. Mazkur futbolchilar O'zbekistonning turli viloyatlaridan ekanliklarini hisobga olinsa, milliy terma jamoaning tuzilishi mamlakat muxlislarini bir maqsad ostida birlashtirganligi namoyon bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Новикова И. В. Дворовый футбол как фактор формирования социального капитала подростков в условиях современного города. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук. – Саратов. 2010. – С. 4.
2. James N. History off Football. – Nyu York, 2017. – P. 2.
3. Squires D. The illustrated History of Football. – Salt Lake City, 2017. – P. 20.
4. Devid Goldblatt. The ball is Round: A Global history of soccer. – Nyu-York: Riverhead books, 2008. – P. 710.
5. Squires D. The illustrated History of Football... – P. 20.
6. Ходжаев П., Туленова А., Ниёзов А., Ережепов А. Футбол сабоқлари. – Тошкент: Шарқ, 2013. – Б. 3–4.
7. Ходжаев П., Туленова А., Ниёзов А., Ережепов А. Футбол сабоқлари... – Б. 4.
8. James N. History off Football. – Nyu-York: Nyu York sity, 2017. – P. 3.
9. Diana Star Helmer, Tom Ouens. History of Soccer. – London: Powerkids Pr, 2000. – P. 15.
10. Alex Bellos. Futebol. Bloomsbury Publishing, – London, 2014. – P. 107.
11. Султонов Ш. У. Футбол ўйинининг пайдо бўлиш ва ривожланиш тарихи. – Тошкент, 2014. – Б. 7.
12. Benjamin Kuhlhoff, Ilja Behnisch. Alles Amateure.... – P. 148.
13. Devid Goldblatt. The ball is Round: A Global history of soccer... – P. 100.
14. Tim Hill. The Illustrted History of English Football. – Philadelphiya: Trans Atlantic Press. 2009. – P.77.
15. Исроилов Д., Мирхабибов Ш. Равшан Эрматов – энг кучли ФИФА рефериси. – Тошкент, 2014, – Б. 225.